

OPERA SAN'ATINING RIVOJLANISH JARAYONI

Muxtorqulova Dinora,

Jizzax pedagogika instituti

II- kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Xolbekov M.**

Annotatsiya: O'zbekistonda opera janrining kirib kelishi va rivojlanishi, Mustaqillik davrida o'zbek operalarida janr talqini, mavzu va mazmun doirasi yanada kengaytirilib, boyitilishi ifoda etilgan

Kalit so'zlar: Opera, drama, musiqali teatr, orkestr, vokal, ariya, kompozitor.

Opera — musiqali dramatik san'at janri. Opera qorishma (sintetik) janr bo'lib, o'zida bir nechta san'at turlarini mujassam etadi; unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at va raqs san'ati shakllari yaxlit sahnaviy jarayonda uzviy bog'lanadi. Lekin musiqa ular orasida yetakchi o'rin egallaydi. Operaning adabiy asosi — librettodagi voqealar musiqiy dramaturgiya vositalari bilan, avvalo, vokal musiqa shakllarida gavdalantiriladi. Qahramonlarning hissiy kechinmalari, asosan, yakkaxon xonandalar ijrosidagi ariya, kavatina kabi tugal musiqa lavhalarida o'z ifodasini topadi. Operadagi rechitativ tugal musiqa shakllarini o'zaro bog'lab, musiqiy dramaturgiya jarayonida muhim vazifalar bajaradi. Turli vokal ansambllarda qahramonlarning o'zaro munosabatlari, dramatik voqealar o'z aksini topadi. Xor ro'y berayotgan voqealarning izoxlovchi vositasi vazifasini bajaradi, uning yordamida halq hayoti lavhalari gavdalanadi. Operada orkestr ham katta o'rin egallaydi: Vokal shakllarga jo'r bo'ladi, mustaqil cholg'u qismlarda vaziyatning mazmunini ochib beradi, har bir sahnaning ruhiy holatini ifodalashga yordam beradi. Operaning tuzilishi uning g'oyaviy maqsadiga, syujet xususiyatlariga, musiqiy-ijodiy maktab an'analari va uslublariga hamda kompozitorning ijodiy tafakkuriga bog'liq.

O'zbekistonda opera janri o'zbek mushkeli dramasining rivoji asosida, shuningdek, chet el mumtoz operasining ta'sirida yuzaga kelgan. 19-asrning oxiri -

20-asr boshlarida Toshkentga bir nechta (gruzin — 1894; 1907—15 yillarda — italyan, tatar, rus, ozarbayjon) opera gruppalari gastrolga kelgan. 1918-yildan Toshkentda Rus opera teatri o'z faoliyatini boshlagan. 1929-yilda M.Qoriyoqubov tashabbusi bilan o'zbek musiqali teatri ishga tushdi. Uning repertuari, asosan, musiqali dramalardan iborat bo'lgan. Mazkur teatr sahnasida o'zbek tilida qo'yilgan birinchi operalar — "Er Targ'in" (Ye. Brusilovskiy, 1937) va "Nargiz" (M.Magomaev, 1938) dir. O'zbek opera va balet gruppasi O'zbek musiqali teatri zaminida yuzaga kelib, 1939-yil S. Vasilenko va M. Ashrafiyning "Bo'ron" Operasi bilan o'z faoliyatini boshlagan. Dastlabki o'zbek operalari o'zbek va rus kompozitorlarining ijodiy hamkorligi natijasida hamda O'zbekistonda ijod qilgan rus kompozitorlarining mahalliy mavzudagi ijodida rivoj topgan .

Urushdan keyingi davrdan opera teatrining milliy repertuari ancha boyidi. Bu birdaniga bo'lmagan, albatta. Davr boshida repertuarda qayta tahrir qilingan eski asarlar (S.Vasilenko va M.Ashrafiyning "Buyuk kanal", V.Uspenskiy va G.Mushelning "Farhod va Shirin", T.Jalilov va B.Brovtsinning "Tohir va Zuhra") ustunlik qilgan. Biroq 1958-yildan boshlab deyarli har yili teatr o'z repertuariga yangi o'zbek operalarni kiritdi. Shu davrda o'zbek tilida jahon mumtoz opera namunalari (J. Bizening "Karmen", 1944; P. Chaykovskiyning "Yevgeniy Onegin", 1947 va boshqalar) ham sahnalashtirildi. Keyinchalik o'zbek kompozitorlarining afsonaviy-romantik, tarixiy, lirik, zamonaviy mavzulardagi mustaqil operalari paydo bo'ldi: "Dilorom", "Shoir qalbi" (M. Ashrafiy), "Xamza" (S. Boboev), "Xorazm qo'shig'i" (M. Yusupov) va boshqa birinchi o'zbek hajviy operasi "Maysaraning ishi" (S. Yudakov) bo'lib, bir nechta chet mamlakatlar teatrlarida qo'yilgan. "Yoriltosh" (S. Boboev) birinchi o'zbek bolalar operasidir.

1970—80 yillari o'zbek kompozitorlari opera janrini mavzu jihatidan boyitishdi. Shu davr ichida tarixiy — "Mangulik" (U. Musaev), "Fidoyilar" (S. Boboev), zamonaviy — "Sadoqat" (R. Abdullaev), atoqli shaxslarga bag'ishlangan — "Sug'd elining qoplari" (I. Akbarov), "Zebuniso" (Sayfi Jalil), "Alisher

Navoiy" (M. Burhonov), shuningdek, kamer operalar — "Sohilda to'qnashuv" (N. Zokirov), "Ona qalbi" (Hab. Rahimov) va boshqa operalar sahnalashtirildi.

Mustaqillik davri o'zbek operalarida janr talqini, mavzu va mazmun doirasi yanada kengaytirilib, boyitildi: Mazmunni talqin qilishda asosiy urg'u milliy hamda umumbashariy ma'naviy qadriyatlarni tarannum etishga, murakkab vaziyat va psixologik holatlarni chuqur ifoda etishga qaratildi. Bu davrda o'zbek kompozitorlari opera asarlarida o'zbek xalq musiqa merosi va milliy ijrochilik an'alarini zamonaviy ifoda va texnik vositalar bilan uzviy bog'lashga ahamiyat berdilar. Mavzu va badiiy saviyasi turlicha boyigan mazkur asarlar tomoshabinlar tomonidan ham turlicha qabul qilindi. Ba'zilar sahnadan tezda tushib ketdi, boshqalari esa teatr repertuaridan muhim o'rin egalladi.

Opera musiqiy dramaturgiyasining rivojlanish jarayonida, partituraga kiritilgan ariyalar, duet, trio, kvartet, kvintet, vokal ansambllar, ommaviy xorlar, o'rinli joyda jaranglaydi. Simfonik orkestr vokal nomerlarga birgina jo'r bo'lib qolmasdan, u ayrim epizodlarda, mustaqil ravishda muhim rol o'ynaydi.

Sulaymon Yudakovning "Maysaraning ishi" birinchi hajviy operasi, jahonga mashhur boigan hajviy operalarni qatoridan munosib o'rin oldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki mazkur operada ham opera "buffa"dagi kabi barcha tipik xususiyatlari to'la - to'kisdir. Ya'ni ohangdor ariyalar, vokal - ansambllar, ommaviy xorlar, ohangdor va "secco" (tez harakatda so'zlash) rechitativlar orkestr sadolari bilan hamohang birlikda jonli va ildam sur'atda sahnada sodir bo'layotgan jiddiy va hajviy vaziyatlar, mukammal ravishda tasvirlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Istoriya uzbekskoy sovetskoy muzıki. -T.: 1973, 1991.
2. Jabborov A. "Musiqiy drama va komediya janrlari O'zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida", -T.: 2000.

3.Yan Pekker “Uzbekskaya opera”, -M.: 1984.

4.Pekker Ya., O‘zbekskaya opera, M., 1984;

5.Murodova D., Mustaqillik davri O‘zbekiston kompozitorlik ijodiyoti to‘g‘risida,.